

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Salimov Karimjon Zokirjon o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tergov faoliyati talabasi

e-mail: karimjonsalimov50@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchalari, keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar tahlili, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi xorijiy tajribalari o'rganilib, tahlil qilingan. Maqolada ushbu mamlakatlarda korrupsiyani kamaytirishga xizmat qilgan huquqiy, institutsional va ijtimoiy mexanizmlar alohida yondashuv asosida ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaviy jinoyat, manfaatlar to'qnashuvi, xorijiy tajriba.*

FOREIGN EXPERIENCE IN FIGHTING AGAINST CORRUPTION

Abstract: *This article analyzes corruption, anti-corruption measures, anti-corruption measures in the next situation, trials of combating the problems, problems of today's situation in the anti-corruption fight. Legal, institutional and social mechanisms that serve corporate governance in the organization are considered in the article.*

Key words: *corruption, fight against corruption, corrupt crime, conflict of interests, foreign experience.*

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ

Аннотация: *В данной статье изучаются и анализируются понятия коррупции, борьбы с коррупцией, анализ системных мер, направленных на формирование нетолерантного отношения к коррупции в нашей стране в последующие годы, зарубежный опыт развитых стран в борьбе с коррупцией. В статье на основе особого подхода рассматриваются правовые, институциональные и социальные механизмы, послужившие снижению коррупции в этих странах.*

Ключевые слова: *коррупция, борьба с коррупцией, коррупционная преступность, конфликт интересов, зарубежный опыт.*

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan, jahon hamjamiyati vakillarini tobora tashvishga solayotgan global muammolardan biri bo'lgan korrupsiya jamiyat xavfsizligi va barqarorligi, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanishi va hukumatning

institusional rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan illatlardan biridir. Korrupsiyaga oid jinoyatlar hukumat vakillarining jamiyat oldidagi obro'siga putur yetkazibgina qolmay, ichki va tashqi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning samarali yo'lga qo'yilishida ham jiddiy muammo tug'diradi. Korrupsiya bilan bog'liq muammolarning keng talqin qilinishi va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan chora-tadbirlarning kuchaytirilishiga qaramay ushbu jinoyatni ildiz otib borishi uning mohiyatini yanada chuqurroq tahlil qilish va paydo bo'lish sabablarini kengroq o'rganishga undaydi. Davlat va jamiyat boshqaruvinu yanada takomillashtirish va modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvida barcha sohalarni liberallashtirish shart-sharoitlarida davlat mansabdorlari tomonidan poraxo'rlik, mansab mavqeyini suiiste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarning sodir qilinishi davlat hokimiyatining obro'sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetishiga, natijada, davlat hokimiyati faoliyati samaradorligining susayishiga sabab bo'ladi. Korrupsiya inson huquq va erkinliklarini kafolatlarini izdan chiqaradi. Jamiyatda shaxslar o'rtasida ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish uchun eng muhim vazifalardan biri bu, jamiyat ongini tubdan o'zgartirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirishdir. Bu muammoni hal qilish uchun, birinchi navbatda, aholining huquqiy madaniyatini tizimli ravishda oshirib borish, davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarining to'liq shaffofligiga erishish, shuningdek, barcha davlat va nodavlat tashkilotlarida doimiy ravishda maqsadli profilaktika ishlarini olib borish orqali erishiladi. Mamlakatimizda tarixan qisqa davr ichida qonuniylikni ta'minlashning institutsional va huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali tizim yaratildi. Bunda, ayniqsa, 2017-yil yanvarida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi Qonuni nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qonunda korrupsiya atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Korrupsiya - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish". Ushbu qonun bugungi kunda davlat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarining samaradorligini kuchaytirishga, shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohasida bunday holatga to'liq barham berishga xizmat qilmoqda.

Jamiyatda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillardan biri – fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetishmasligi, shu jumladan chiqarilayotgan qonun loyihibalaridan bexabarligi asosiy sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Korrupsiya vayronkor g'oya sifatida talqin qilinadi. U ijtimoiy tengsizlikni keltirib

chiqaruvchi, jinoyatchilikka yo'l ochuvchi “yashirin iqtisod” sifatida qoralanadi. Bu salbiy hodisaga qarshi kurashishda davlatlar ko'p kuch va mablag' sarflab kelmoqda. Tarixga nazar tashlasak, korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat bu Qadimiy Mesopotamiya hisoblanadi, ammo bu kurash natijasiz yakunlangan. Shunga qaramay bu kurash muvaffaqiyat qozonmasada, u amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Insoniyat tarixida korrupsiyani tugatish yo'llari va asoslari qadimgi dunyoda Hindistonda yaratilgan. Bundan 2,5 ming avval “Siyosat ilmi” kitobida bu illatga nisbatan jazo tayinlanagan. Korrupsiyani oldini olishga mas'ul shaxs vaqtı-vaqtı bilan xalq to'planadigan joy va bozorlarda quyidagicha murojaat qilgan: “Biror bir boshliqdan zarar ko'rganlar bo'lsa bu haqida bizga xabar bersinlar” degan hayqiriq bilan xalqqa murojaat qilgan. Bu usul va vositalar nafaqat hozir, balki, o'sha davr uchun ham naqadar dolzarbligini ifodalaydi.

Xo'sh, bugungi kunda xorijiy davatlarda korrupsiyaga qarshi kurashda qanday usullardan foydalanilmoqda va ulardan ko'zlangan maqsad nimalardan iborat?

Xorijiy davatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sifatida davlat xizmatchilarning mol-mulkini va shaxsiy daromadini deklaratsiya qilish tartibi majburiy etib belgilangan. Bunda asosan noqonuniy daromad olish va mol-mulkini ko'paytirishni, shuningdek manfaatlar to'qnashuvini oldini olish nazarda tutilgan. Daniya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, davlat 2002-yilda “Korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risida” qonun qabul qilindi. Qonunda Daniya hukumati vakillari har yili o'z mol-mulkini va shaxsiy daromadlarini nashr etishga majburligi, buning natijasida davlat boshqaruvi shaffofligini ta'minlash va korrupsiyani oldini olishga e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin.

Singapurda vazirlar va boshqa mansabdorlarning oylik maoshi xususiy sektordagi tashkilotlar rahbarlari maoshi darajasigacha ko'tarilgan, xodimlar masalasida ham shunday. E'tiborlisi shuki, xususiy sektorda rahbar va xodimlar daromadi oshib borishi barobarida, parallel ravishda, davlat xizmatchilar oyliklari ham ko'tarilib boriladi. Shuningdek, davlat idoralariga yetuk kadrlarni yetishtirib beruvchi murakkab va mukammal mexanizm yaratilgan. Singapurda nafaqat davlat xizmatchilarining oylik ish haqini ko'tarish, qonuniy asoslarni mustahkamlash va jazoni kuchaytirish balki meritokratiyaga ham asoslangan. Davlat xaridlarni amalga oshirish bo'yicha moliyaviy organlarning aniq qoidalari va standart ko'rsatmalarining mavjudligi biznes va tashkilotlarda qonunbuzilish holatlarini aniqlashga yordam beradi. Hisob kitoblarning aniq yuritilishi va muntazam tekshiruvlar ham korrupsiyani oldini olishning yaxshi usullari hisoblanadi. Singapurning korruptsiyaga qarshi kurash olib borishda qo'llayotgan yana bir usuli haqida gapiradigan bo'lsak, asosiy vazifasi korruptsiyaga qarshi faol kurash olib borishdan iborat bo'lgan mustaqil faoliyat yurituvchi maxsus organ - Korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha tergov byurosini hisoblanadi. Byuro o'z vazifasini amalga oshirishda quyidagilarni bajaradi:

- davlat va xususiy sektorda korrupsiyani oldini olish yuzasidan o'rganishlar o'tkazadi;
- hukumat amaldorlarining o'z mansabida suiiste'mollikka yo'l qo'yish kabi holatlarni tekshirib, mas'ul organlarni xabardor qiladi;
- boshqaruvdagi kamchiliklarni aniqlash maqsadida davlat organlarining ish yuritish uslubini o'rganadi, agarda ushbu tizimda bo'shliqlar mavjud bo'lib, korrupsiya yoki mansab suiiste'molligiga sabab bo'lsa, zudlik bilan ushbu bo'linma rahbarlariga choralar ko'rishga maslahat beradi.

Gana korrupsiyaga qarshi kurashish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda "Korrupsiyaga Qarshi Milliy Strategiya"ni ishlab chiqdi. Ushbu strategiya doirasida xalqaro yordam va resurslar jalb qilindi, bu esa mamlakatda korrupsiyani kamaytirishga yordam berdi.

Finlandiya davlatining korrupsiyaga qarshi kurashdagi tajribasi juda samarali hisoblanadi. Finlandiyada kuchli qonunchilik bazasi, korrupsiyaga qarshi qat'iy qonunlar va ularning ijrosi samarali amalga oshiriladi. Bu qonunlarning hamma uchun bir xil va qat'iy amal qilishini ta'minlash orqali, Finlandiya korrupsiyani sezilarli darajada kamaytirishga erishgan. Finlandiya qonunchiligidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qat'iy me'yorlar va jarimalar mavjud. Masalan: Finlandiyaning 2010-yilda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish" to'g'risidagi maxsus qonun, ya'ni "Criminal Code of Finland" ning korrupsiyaga qarshi kodifikatsiyasini qabul qildi. Ushbu qonun davlat xizmatchilari va xususiy sektor xodimlarining korrupsiya jinoyatlari bilan shug'ullanishini jiddiy tartibga soladi. Korrupsiyaga qarshi jinoyatlarni sodir etganlarga qattiq jazolar, jumladan, 1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va katta miqdorda moliyaviy jarimalar belgilangan. Shuningdek, bu davlatda korrupsiyaga umumiyligi jinoyatchilikning bir qismi qabilida kurash olib boriladi. Finlandiya Konstitusiyasi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun, ma'muriy boshqaruvga oid yo'riqnomalar va boshqa qonunosti hujjatlar korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar hisoblanadi. Bularning orasida eng muhimmi Axloq qoidalariadir. Finlandiyada davlat xizmatchilarini korrupsiyalashuvidan saqlovchi muhim omillardan biri – ularning moddiy va ijtimoiy ta'minlanganligidadir. Mamlakatda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan qonun hujjatlarning ijro yuzasidan nazoratni prezident tomonidan tayinlanib, to'laqonli mustaqil faoliyat olib boradigan Adliya kansleri va parlament vakili Ombudsman amalga oshiradi. Ushbu organga shunchalik katta vakolat berilganki, hattoki butun hokimiyat tarmoqlari faoliyatini nazorat qila oladi.

Korrupsiya darajasi eng past bo'lgan mamlakatlardan yana biri- Yangi Zellandiyadir. Mamlakatning mazkur sohadagi tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1961-yilda qabul qilingan Jinoyatlar aktining oltinchi bo'limi "Qonun va odil sudlovni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi jinoyatlar" deb nomlanib, mazkur bo'limda

poraxo'rlik va korrupsiya uchun javobgarlik masalalari yoritilgan. E'tiborli jihat shundaki, mazkur bo'limda har bir davlat amaldorining korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun alohida javobgarlik belgilangan. Xususan, Aktning 100-bandida sudyalar va sud xodimlarining poraxo'rliги, 101-bandida sud xodimiga pora berish, 102- bandida vazirlarning poraxo'rliги, 103-bandida parlament deputatining korrupsiyasi va poraxo'rliги, 104-bandida huquqni muhofaza qilish organi xodimining korrupsiyasi va poraxo'rliги, 105-bandida mansabdor shaxsning poraxo'rliги, 105"-c"-bandida chet ellik davlat amaldoriga pora berish, 105"-d"-bandida Yangi Zelandiyadan tashqarida xorijiy davlat amaldorining poraxo'rliги, 105"-e"-bandida xorijiy davlat amaldorlarining korrupsiyasi uchun javobgarlik masalalari alohida keltirib o'tilgan. Alohida ta'kidlash lozimki, mansabdor shaxslarning korrupsiyaviy jinoyatlari uchun alohida javobgarlikning belgilanishi, bunday jinoyatniadolatli hal qilinishiga, qolaversa har bir mansabdor shaxsning o'z vazifasiga mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, jinoyatchilarga qarshi kurash usullarining qonunchilikda alohida, tizimli aks etishi, bunday turdag'i jinoyatlarga qarshi kurashni ham osonlashtiradi.

Korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borib, korrupsiya ko'rsatgichi bo'yicha yaxshigina natijalarni qayd etayotgan mamlakatlar qatorida Latviyaning yuritayotgan siyosatini ham alohida ta'kidlashimiz lozim. Latviya bunday natijaga, avvalo, mamlakatda antikorrupsiyaviy ta'limni joriy etishga jiddiy e'tibor berib, ushbu tizimni maktablardan to'oliy o'quv yurtlarigacha tatbiq etishga muvaffaq bo'lish orqali erishgan. Latviya ta'lim tizimida yoshlar o'rtasida halollik va vijdonli bo'lishni targ'ib qilishga, korrupsiya va poraxo'rlikning zararlari haqidagi tushunchalarni shakllantirishga imkon beradigan loyiha ham ishlab chiqqan. Mazkur loyiha doirasida maktab o'quvchilarini orasida turli xildagi tadbirlar, jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga noinsoflik, vijdonsizlik aks etgan multifilmlar yoki ertaklar ijro etilib, ularning fikrlashlari uchun muhokamaga tashlanadi. Barcha o'quvchilarning fikrlari yozib olinib, tanlovlarga jo'natiladi. Tanlov "Korrupsiyaga qarshi birgalikda" shiori ostida o'tkaziladi. Latviyada korrupsiyaga qarshi kurashda asosiy omil bu-davlatda siyosiy irodaning mavjudligi bilan izohlanadi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan Korrupsiyaga qarshin kurash va uni oldini olish byurosi (KNAB) faoliyat yuritib, unga quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni oshkor qilish va bartaraf etish;
- ushbu sohada tergov harakatlarini amalga oshirish va jinoiy ta'qibni muvofiqlashtirish;
- mansabdor shaxslarni faoliyatini kuzatib borish, ularga nisbatan qo'llanilgan cheklov va ta'qiqlarni nazoratga olish;
- manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarda shaxslarni javobgarlikka tortish;
- korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishda qonunchilikni tahlil qilish.

Xalqaro darajada Xitoyning korrupsiyaga qarshi kurashish tajriba usulini o'rganish júda qiziqarli. Xitoya korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati korrupsiya jinoyatlarida aybli deb topilgan shaxslarga qarata juda talabchan jinoiy jazo qo'llanilganligi bilan taniqli. Xitoya korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligi mansabdor shaxslarning faoliyatini baholashning yo'lga qo'yilganligi hisoblanadi. U mansabdor shaxs boshqaruvchi yoki nazorat yoki nazorat qilish olib borarlik hududning yoki soha rivojlanish ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Xitoy davlat organlarda nimadir tanish-bilishlari, aloqalari bor bo'lganligi uchun emas, halol bozor raqobat mavjudliklari yutuqlarga erishganligi haqida ma'lumotlarni tarqatish atroficha qo'llab quvvatlandi. Xitoya barcha davlat hokimiyati va boshqarish organlarida barqaror ro'yobga oshiriladigan kadrlar rotatsiyasi korrupsiyaga qarshi kurashishda ijobjiy uslub hisoblanadi. Kadrlar rotatsiyasi amaldorlarning shakllangan xizmat, qarindosh-urug' do'st-yor va boshqacha aloqalaridan foydalanishni kamaytirdi.

Shuningdek, yuqorida tahlil qilingan rivojlangan davlatlarning deyarli hammasida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning aniq ro'yxati belgilangan bo'lib, ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi va ularni sodir etgan shaxslarning egallab turgan lavozimi, jamiyatdagi o'rniqa qarab jazo tayinlanadi va bu jazoning adolatliligi, odilligi kabi prinsiplarning to'g'ri qo'llanishiga, jamiyatda korrupsiyaning eng past darajaga tushirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari ko'pgina xorijiy mamlakatlar korruption jinoyatlarni oldini olish maqsadida mansabdor shaxslarning mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish, barcha sohalarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda davlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning elektron tartibda amalga oshirish tizimi yo'lga qo'ygan. Bunday usullarning amaliyotga tatbiq qilish hamda aholining mazkur sohadagi huquqiy ongini yuklashtirish orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurashish mumkin.

Buyuk faylasuf Aristotel ta'kidlaganidek, "Hokimiyatga pul bilan erishgan odam, albatta, undan daromad olishga intiladi". Shunday ekan ertaga "oson yo'llar" orqali o'qishni tugatgan, yoki biror bir lavozimni egallagan shaxsning o'zi ham korrupsiyaga yo'l qo'ymasligiga hech kim kafolat bermaydi. Bugungi kunda faqat davlat organlari va mas'ul tashkilotlar emas, balki, jamiyatning har bir ishtirokchisi, butun millat – bu illatga qarshi kurashsagina mavjud muammoni, taraqqiyot kushandasini yenga olamiz. Yuksak diniy va dunyoviy bilimlarga ega Yangi O'zbekistonni barpo etishda jamiyat farovonligiga to'siq bo'ladigan korrupsiya deb atalmish vayronkor g'oyaga o'rinn yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston->

respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyevning-oliy-25-01-2020. (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis);

2. <http://lex.uz//docs/-3088008> O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonuni;
3. Авдеев В.А., Авдеева О.А. Стrатегические направления противодействия коррупции в РФ // Российская юстиция. 2016. № 7. С. 19–21. (Strategic directions for combating corruption in the Russian Federation. Avdeev V.A., Avdeeva O.A.);
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish choratadbirlari to‘g‘risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2023 yildagi PF-200- son Farmoni;
5. Singapur Korrupsiyaga Qarshi Siyosati. (2023). Corruption Prevention and Control in Singapore.